PEDAGOGIK KOMPETENTLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT

Gulmira Rifovna Tojiboeva
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Dildora Turgunovna Pulatova
A. Avloniy nomidagi xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Maktabdan tashqari ta’lim tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kafedrasi mudiri

ANNOTATSIYA

Pedagogik kompetentlik o‘qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etilishini ta’minlovchi omil sifatida haraladi. Bugunda o‘qituvchining kompetentligi qaysi mezonlar bilan belgilanishin o‘rganish muxim bo‘lmoqda. Maqolada kompetensiya va kompetentlik tushunchalari, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rsatib berilgan. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarning turlari izoqlangan. Pedagogik kompetentlik shakllanish bosqichlari tavsiflab berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kompetensiya, professionallik, strategiya, kasbiy pedagogik kompetensiyalar, etalonga mos mezonlar.

PEDAGOGICAL COMPETENCE: THEORY AND PRACTICE

Gulmira Rifovna Tojiboeva
Senior Teacher of Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

Dildora Turgunovna Pulatova
Institute of Retraining and Advanced Training of Managers and Specialists of Public Education named after A. Avloni, Head of the Department of Retraining and Advanced Training of Extracurricular Education Staff

ABSTRACT

Pedagogical competence is considered as a factor in ensuring the quality of pedagogical activity. Today it is important to study the criteria by which the competence of a teacher is determined. The article highlights the concepts of competence and being competent, the similarities and differences between them. The types of professional pedagogical competencies are revealed. The stages of the formation of pedagogical competence are described.

Keywords: competence, competency, professionalism, strategy, professional and pedagogical competence, guidelines.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy soqlom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo‘ymoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaqirasini yaratish" vazifasi belgilandi[1]. Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug’iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir.

Har qanday o‘qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma’lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o‘xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglatsa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kompetensiyalar ta’rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud:

- Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi.
- Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya’ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko‘riladi[3].

Vazirlar Maqkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son harori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’riflangan[2].

Funksiyalarni to‘g’ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy o‘sishi uchun qaysi yo‘nalishda harakatlanishini bilishi kerak.

NATIJALAR

Professionallik va kompetentlik bir-biriga o‘hshash bo‘lsada, har xil ma’noga ega bo‘lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma’lum bilimlar, balki

mehnatga bo‘lgan munosabat, ishning o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo‘llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

MUHOKAMA

Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lavermaydi, sabab, ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lish. Bundan tashqari, pedagogning o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog’liq.

- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko‘nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan.

- Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo‘lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o‘sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Kompetensiyaning har bir turi ko‘nikmalar, bilimlar, ko‘nikmalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko‘rsatkichlariga e’tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin.

Kompetentlik qanday shakllanadi? O‘qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta’limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko‘nikmalar boshlang’ich kompetensiya darajasini to‘ldiradi.

Bularning barchasi formula shaklida taqdim etilishi mumkin: **Kompetentlik = Bilaman + Qila olaman + Istayman + Men qilaman.**

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. Uni quyidagi bosqichlarga bo‘lishimiz mumkin:

1. Maxsus ma’lumot olish.
2. Amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
3. Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o‘tish.
4. Kasbiy tajribaga ega bo‘lish.
5. O‘z sohasida professionallikka erishish.
6. Tajriba to‘plash, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan pedagogning kompetentligi yaxshilanadi.

Jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagogning shaxsiy xususiyatlariga bog’liq. Pedagog yaxshi ishlashini qanday qilib tez va mustaqil ravishda tekshirish mumkin? Muvofiqlikni qanday baholash kerak? Pedagoglarning kompetentligini baholash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lgan tizimdir:

- pedagoglarning malaka darajasi - baholash uchun etalonga mos mezonlar ishlatiladi;
- mehnat unumdorligi va ish sifati;
- shaxsiy xususiyatlarning ta’lim yo‘nalishiga muvofiqligi;
- qo‘shimcha ko‘nikmalar mavjudligi;
- shaxsiy o‘sish va kasbiy rivojlanish istagi.

Pedagoglarning kompetentligini baholashda xatti-harakatlarning ko‘rsatkichlariga tayanib ish tutish samaralidir. Aynan shu narsa kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqlar nimani anglatishini aniq ko‘rsatib beradi. Mutaxassislarning malakasini baholash muntazam, mustaqil, maqsadli, shaffof, aniq mezonlarga ega bo‘lishi kerak.

Kompetentlik nima ekanligini tushungandan so‘ng, uning darajalarini aniqlash qiyinchilik tug’dirmaydi. Kompetenlik modelini yaratish bo‘yicha quyidagi algoritmni taklif etishimiz mumkin:

1 bosqich – lavozim yo‘riknomasini ishlab chiqish. Ushbu bosqichda lavozim uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar turlarini aniq ko‘rsatish muhimdir.

2 bosqich – tekshirish sur’atini aniqlash. Bu ta’lim muassasasining o‘ziga xos xususiyatlariga va kadrlar almashinuviga bog’liq.

3 bosqich – har bir o‘rin uchun taqqoslash asosida sinov yoki imtihonni o‘tkazish tartibini tasdiqlash.

4 bosqich – sinov yoki imtihondan o‘tish.

5 bosqich – ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni tizimga keltirish.

6 bosqich – baholash natijalari to‘g’risida qaror qabul qilish: qo‘shimcha o‘qishga yuborish, boshqa lavozimga o‘tish, ishdan bo‘shatish.

7 bosqich – hisobot davrida ta’lim muassasasining vakolati va ishini baholash samaradorligini yakuniy tahlilini qilish.

8 bosqich – xavf-xatar va to‘siqlar bo‘yicha ish namunasini to‘liq ishlab chiqish. Xususiy yoki asosiy kompetensiyalarga ega bo‘lish uchun qanday vakolatlarga ega bo‘lish har qanday ishda qo‘llanilishi kerak. Ular ta’lim muassasaning qadriyatlariga bog’liq: strategiya, axloq kodeksi.

Shaxsiy samaradorlik kompetensiyalari pedagogning shaxsiy fazilatlari bilan birga o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- yetuklik, o‘sishga intilish, masalan, kasbiy qadriyatlarni izlash, ijodiy qobiliyat;
- yetarli darajada o‘zini o‘zi anglash va o‘ziga ishonch;
- moslashuvchanlik, o‘zgartirish istagi;
- ish etiketini bilish;
- stressga qarshi o‘z-o‘zini boshqarish;
- imidj.

Pedagoglarning boshqaruv kompetentligi sifatida jamoaviy ish, rahbarlik, hamkorlik, murabbiylik, rasmiy vakolatlardan foydalanish kabi mezonlar ko‘rsatadi.

Taklifimiz, kompetentlik talablariga javob bermaydigan har bir pedagogni qo‘shimcha mashg’ulotlarga yuborib, ta’lim muassasasi faoliyatiga asoslangan treninglar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir, ya’ni pedagoglarni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa shuki, kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. U oliy ta’lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hamdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi to‘g’risida" 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.
2. Jabborova Onaxon Mannopovna, & Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, May). Optimization of primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(5), 1229-1232.

3. Jabborova Onahon Mannopovna, Jumanova Fatima Uralovna, & Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of Artistic Perception of Future Teachers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(4), 4087-4095.
4. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-qunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘qrisida O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.
5. Тожибоева, Г. Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. *Science and World*, *1*(77), 32-33.
6. Avlaev Orif Umirovich, & Abdujalilova Shoira Abdumajitovna. (2020). The Role of Social Intelligence in Personality Maturity. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(4), 3983-3991.
7. Эрназарова Г. О., & Исламова М. Ш. (2019). Совершенствование подготовки к профессии учащихся профессиональных колледжей на основе акмеологического подхода. *Pedagogy & Psychology Theory and practice International Scientific Journal*, *6*(26), 52-55.
8. Золотых, Н. В., & Хайтметов, Р. К. (2020). Условия формирования компетентности будущего педагога в личностно-развивающей воспитательной деятельности. *Academic Research in Educational Sciences*, *1*(2), 113-119.
9. Тажибоева, Г. Р. (2020). Социальные проблемы и переспективы интеграционого обучения. *Журнал научных и прикладных исследований*, *1*, 54-55.
10. Mamadaliev, K. R., Jabborova, O. M., Umarova, Z. A., & Abdullayeva, B. P. (2020). Creation of a New Generation of Teaching Literature-A Requirement of Modernity. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*, 612-619.
11. Sergeyeva, E. (2020). Artistic Identity of L. Solovyov’s Novel “The Tale of Khodzha Nasreddin”. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *8*(6).
12. Saydakhmetova, D. (2020). Teaching Russian as a Foreign Language Through Stories. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, *8*(5), 75-78.
13. Сайдахметова, Д. Х. (2020). Международные оценочные программы (PISA, TIMSS, PIRLS) и подготовка учеников к ним. *Science and Education*, *1*(Special Issue 2), 112-120.
14. Tojiboeva, G. R. (2020). The Training Improve Future Elementary School Teachers. *The Way of Science*, *1*(71), 80-82.

REFERENCES

1. "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi to‘g’risida" 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.

2. Jabborova Onaxon Mannopovna, & Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, May). Optimization of primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(5), 1229-1232.
3. Jabborova Onahon Mannopovna, Jumanova Fatima Uralovna, & Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of Artistic Perception of Future Teachers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(4), 4087-4095.
4. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-qunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘qrisida O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.
5. Тожибоева, Г. Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. *Science and World*, *1*(77), 32-33.
6. Avlaev Orif Umirovich, & Abdujalilova Shoira Abdumajitovna. (2020). The Role of Social Intelligence in Personality Maturity. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(4), 3983-3991.
7. Эрназарова Г. О., & Исламова М. Ш. (2019). Совершенствование подготовки к профессии учащихся профессиональных колледжей на основе акмеологического подхода. *Pedagogy & Psychology Theory and practice International Scientific Journal*, *6*(26), 52-55.
8. Золотых, Н. В., & Хайтметов, Р. К. (2020). Условия формирования компетентности будущего педагога в личностно-развивающей воспитательной деятельности. *Academic Research in Educational Sciences*, *1*(2), 113-119.
9. Тажибоева, Г. Р. (2020). Социальные проблемы и переспективы интеграционого обучения. *Журнал научных и прикладных исследований*, *1*, 54-55.
10. Mamadaliev, K. R., Jabborova, O. M., Umarova, Z. A., & Abdullayeva, B. P. (2020). Creation of a New Generation of Teaching Literature-A Requirement of Modernity. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*, 612-619.
11. Sergeyeva, E. (2020). Artistic Identity of L. Solovyov’s Novel “The Tale of Khodzha Nasreddin”. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *8*(6).
12. Saydakhmetova, D. (2020). Teaching Russian as a Foreign Language Through Stories. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, *8*(5), 75-78.
13. Сайдахметова, Д. Х. (2020). Международные оценочные программы (PISA, TIMSS, PIRLS) и подготовка учеников к ним. *Science and Education*, *1*(Special Issue 2), 112-120.
14. Tojiboeva, G. R. (2020). The Training Improve Future Elementary School Teachers. *The Way of Science*, *1*(71), 80-82.